

O'ZBEK KULOLCHILIK SAN'ATIGA XOS TERMINLARNING O'RGANILISH AHAMIYATI

Mannonova Maftuna ¹

¹ Nodavlat ta'lim muassasasi

Qarshi xalqaro universiteti

e-mail: maftunamannonova3@gmail.com

MAQOLA MALUMOTI:

ANNOTATSIYA:

MAQOLA TARIXI:

Received: 28.12.2024

Revised: 29.12.2024

Accepted: 30.12.2024

Ushbu maqola o'zbek kulolchilik san'atida qanday terminlar ishlatilishi va ularning semantik va leksik qurulishini o'rganadi. Bundan tashqari zamonaviy tilshunoslikda arxaizmlarning o'rnini o'rganadi.

KALIT SO'ZLAR:

tilshunoslik,
kulolchilik, tematik
tasniflash, lug'at,
terminologiya
tushunchasi.

KIRISH. Bugungi o'zbek tilshunosligida fan va texnikaning jadal rivojlanishi, yangi sohalarning paydo bo'lishi, mazkur sohalarda tushunchalarni ifodalashga bo'lgan ehtiyoj terminlarni vujudga keltiradi. O'zbek tilshunosligida o'zbek tili kulolchilik terminlarining shakllanish manbalari va tematik tasnifini o'rganish ham o'ta muhim vazifa bo'lib hisoblanadi. Shu jihatdan kulolchilik terminlarining boyish manbalarini, xususan, o'z qatlam va o'zlashma qatlamga oid terminlarni o'rganish, shuningdek, o'zbek tili kulolchilik terminlarining semasiologik xususiyatlari, kulolchilik terminologiyasida sinonimiya, omonimiya va variantlilik hodisasi hamda kulolchilik terminlarining yasallish tizimi, ya'ni leksik-semantik va leksik-sintaktik usul, morfologik usul, sintaktik usul bilan yasalgan kulolchilik terminlari o'zbek tilshunosligida ilmiy jihatdan alohida tadqiqot sifatida hozirgacha o'rganilmagan. Mazkur maqolada kulolchilik terminologiyasidagi terminlarni imkon qadar bor manbalarga asoslangan holda izohlashga bag'ishlangan.

O'zbek tilida kulolchilik terminologiyasini o'rganish, mavjud lug'atlarda qayd etilgan kulolchilik hunariga oid atamalarni to'plash, shuningdek, kulolchilik texnikasini

kulol tilidan o'rgangan holda ilmiy asoslarga tayangan holda o'zaro taqqoslash hamda kulolchilik terminologiyasiga asoslangan kulolchilik lug'atining yaratilishining ilmiy ahamiyatini tushuntirib berishdan muhim ilmiy ahamiyat kasb etadi. Ishning belgilangan maqsadidan kelib chiqib, quyidagi vazifalarni bajarish rejalashtirildi:

- tilshunoslik fanida badiiy hunarmandchilik sirasidagi kulolchilik terminlarini tadqiq etish, bu terminlar haqida tilshunoslarning fikrlarini qiyoslash, tahlil etish hamda kulolchilik terminlarini qo'llash xususida tavsiya berish;

- o'zbek tili kulolchilik terminlarining shakllanish manbalari va tematik tasnifini o'rganish;

- kulolchilik terminlarining yasash tizimini tahlil qilish;

- o'zbek tili kulolchilik terminlarining semasiologik xususiyatlari tasniflash;

- zamonaviy tilshunoslikda soha terminlarining variantlarini tadqiq etish;

- kulolchilik termin variantlari haqida fikr yuritish;

O'rganilgan kulolchilik terminologiyasi asosida o'zbek tili milliy leksikasini yanada boyitish va kelajakda tadqiqotchilar foydalanishi uchun qo'l kelishi kerak. Buning uchun mazkur tadqiqotni davom ettirish lozim, deb o'ylayman.

O'zbek tili lug'at boyligini kengaytirish hamda har bir so'zning izohi, asl ma'nosi, vazifasi, etimologik kelib chiqishi, dialektal variantlari hamda nutqda voqelanadigan turli xil variantlarini o'rganish o'zbek tilshunosligi oldida turgan muhim vazifalardan biri bo'lib hisoblanadi. Ana shunday muhim vazifalardan yana biri bu kasbga va hunarmandchilikga oid so'zlar haqida ma'lumotlar yig'ish, umumlashtirishdir. Hunarmandchilik sirasidagi eng qadimiy, eng qadrlil va ommabop san'at bo'lib kelayotgan kulolchilik san'atiga oid so'zlarni to'plash ham o'ta ahamiyatlidir. O'zbek tilida kulolchilik terminologiyasini o'rganish, umumlashtirish, boyitish maqsadida O'zbek tili izohli lug'ati va eski o'zbek tilidagi bir qancha lug'atlarda mavjud bo'lgan kulolchilik hunariga oid manbalarni to'plash, shuningdek, kulolchilik texnikasini kulol tilidan o'rgangan holda ilmiy manbalar yig'ish, o'zaro taqqoslash hamda asoslash darkor.

Bizga ma'lumki, badiiy hunarmandchilikda kulolchilik san'ati o'zining jozibakorligi va o'ziga xos texnikasi bilan ajralib turadi. Kulolchilik qora loydan mo'jizakor go'zallik yaratgan Sharqning eng qadimiy hamda navqiron san'atidir. Bu qora loy, saxovat, halollik, ezgulik timsolidir. Tuproq insonlarning barcha ehtiyojini o'z zimmasiga olgan farovonlik, to'kinlik, rizq-ro'z, go'zallikning eng oliy ko'rinishi san'atining zaminidir. Kulolchilik charxi miloddan avvalgi 3-ming yillikning boshlarida ixtiro qilingandan keyin kulolchilik bilan erkaklar shug'illana boshlaganlar.

O'zbek kulolchiligi uzoq tarixga, ajoyib an'analar, shakl, mazmun, ijodiy jarayon va o'ziga xos uslubga ega. Sopol buyumlari sodda bo'lsa-da uning ko'rinishi qismlarining aniqligi, mutanosibligi saqlanishi, naqshlarining badiiy joylashishi, shakl va mazmunining birligi, uyg'unligi o'zbek kulollarini jahonga tanitib kelmoqda. Maxsus tuproqni o'ta qizdirganda toshsimon bo'lib pishishini, undan har xil idishlar tayyorlashni odamlar juda qadimdan neolit davrining boshlaridayoq bilganlar. Neolit davrida idishlarni tagi uchli qilib tayyorlanib yerga sanchib qo'yilgan. Enolit davrida esa Sharq mamlakatlarida hamda Qadimgi Gretsiyada nafis kulolchilik idishlari rivoj etgan va me'morchilikda sopoldan foydalana boshlangan. VIII-XII asrlarda kulolchilik O'rta Osiyoda yaxshi rivojlangan ekanligini Afrosiyobda va O'rta Osiyoning boshqa yerlarida topilgan kulolchilik buyumlari asosida isbotlash mumkin.

XIX asrda O'rta Osiyoda tojik va o'zbek xalqlari o'rtasida kulolchilik juda keng rivojlanib G'ijduvon, Panjikent, Samarqand, Shahrizb, Toshkent, Rishtonda kulolchilik markazlari paydo bo'la boshlagan.

Rishton O'zbekistondagi sirlangan sopol buyumlari ishlanadigan eng mashhur va qadimiy markazlardan biri. XIX asr oxiri XX asr boshlarida aholisining deyarli hammasi kulollardan iborat bo'lgan. Farg'ona vodiysidagi barcha kulolchilik markazlari azaldan Rishton kulolchilik ta'siri ostida bo'lgan. Ushbu tumanda har qanday turdagi buyumlarni yasash uchun yaroqli bo'lgan, alohida navli kulolchilik gilining mavjudligi bunga asos bo'la oladi. Qizgish-sarg'ish rangli ajoyib gil Rishtonning deyarli butun hududida 1–1,5 m chuqurlikda qatlam bo'lib joylashgan. Gilning yaxshi sifatligi mahalliy ustalarning uni O'zbekistonning boshqa tumanlaridagi kulollardan farqli ravishda oldindan tozalab boshqa turdagi tuproqlarga aralashmagan holda ishlab chiqarishga jalb qilish imkonini beradi. Kulollar Rishton yaqinidagi tog'lardan har xil buyoqlar, kvarsli qum va olovbardosh gillarni qazib olishgan.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Pugachenkova G. A., Rem pel L. I., Ocherki iskusstva Sredney Azii, M., 1982;
2. O'zbekiston san'ati, T., 2001.